“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Protsessual qonunchilik normalarini takomillashtirish - sud orqali himoyalanishning zaruriy elementi

Maksudbek Saidov,
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti v.b.
Sudya
e-mail: mr.msaidov@gmail.com

Аннотация. Protsessual huquq normalari moddiy huquq normalarini amalga oshirishning tartibi, shakllari va usullarini belgilab beradi. Ushbu normalar huquqiy jarayonlarni tartibga solish mexanizmlari, adolatni ta'minlash mezonlari, huquqni himoya qilish usullaridan foydalanish va sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarini qamrab olib, shaxsning sud orqali himoya huquqini ta'minlaydi. Mazkur maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi protsessual qonunchilikning bugungi kundagi holati, undagi mavjud ayrim kamchiliklar, buning oqibatida ba'zi hollarda sud amaliyotidagi har xillik, ma'muriy sud ishlarini yuritishga oid normalarning keyingi bosqichini belgilab beruvchi muhim kontseptual xarakterdagi hujjat va uning asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar bayon etilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganib chiqilib, ma'muriy sudlar faoliyatiga ilg‘or xorijiy tajribada o‘zini oqlagan institut va tartiblarni keng qo‘llash, kelgusida e'tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ayrim jihatlar yuzasidan fikr mulohazalar bildirilgan. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda joriy etilishi nazarda tutilgan yangi institutlarning mazmun-mohiyati va ularni amaliyotda qo‘llash tartibi yuzasidan mualliflik pozitsiya bildirilgan.

Калит сўзлар. protsessual, huquq

Аннотация. Нормы процессуального права определяют порядок, формы и способы реализации норм материального права. Эти нормы охватывают механизмы регулирования правовых процессов, критерии обеспечения правосудия, способы использования методов правовой защиты и все стадии судебного разбирательства, обеспечивают право лиц на судебную защиту. В статье рассматривается современное состояние процессуального законодательства в сфере административного судопроизводства, некоторые его недостатки и сложившееся в результате этого многообразие судебной практики, а также важный концептуальный документ, определяющий следующий этап развития норм административного судопроизводства и подлежащие разрешению на его основе задачи. По итогам изучения опыта зарубежных стран высказаны некоторые аспекты внедрения в деятельность административных судов институтов и процедур, оправдавших себя в передовом зарубежном опыте. Высказана авторская позиция относительно содержания и сущности новых институтов, предполагаемых к введению в административное судопроизводство, и порядка их применения на

практике.

Ключевые слова. процессуал, права

Annotation. The rules of procedural law determine the order, forms and methods of implementing the rules of substantive law. These rules cover the mechanisms for regulating legal processes, criteria for ensuring justice, methods of using legal protection methods and all stages of legal proceedings, and ensure the right of individuals to judicial protection. The article examines the current state of procedural legislation in the field of administrative proceedings, some of its shortcomings and the resulting diversity of judicial practice, as well as an important conceptual document that determines the next stage of development of the rules of administrative proceedings and the tasks to be resolved on its basis. Based on the results of studying the experience of foreign countries, some aspects of the introduction of institutions and procedures into the activities of administrative courts that have proven themselves in advanced foreign experience are expressed. The author's position is expressed regarding the content and essence of new institutions proposed for introduction into administrative proceedings and the procedure for their application in practice.

Keywords. procedural, rights

Demokratik huquqiy davlatni rivojlantirish, sud-huquq tizimini yanada isloh etish sharoitlarida qonuniylikka va fuqarolarning huquqlariga qat'iy rioya etilishi ta'minlash asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Bunda moddiy huquq normalari bilan bir qatorda protsessual huquq normalarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquq nazariyasida moddiy huquq normalari jamiyatda yurish-turish mezonlarini belgilovchi xulq-atvor qoidalari majmuini tashkil etsa, protsessual huquq normalari moddiy huquqda belgilangan normalarni qanday amalga oshirish tartibini belgilaydi. Huquq sohasida ishlatiladigan "protsess" atamasi lotincha "processum" so'zidan olingan bo'lib, harakat degan ma'noni anglatadi [1]. Protsessual huquq normalari alohida tashkiliy, tartib-qoida xususiyatga ega. Bu normalar har doim moddiy huquq normalarini amalga oshirishning tartibi, shakllari va usullarini belgilab beradi. Protsessual huquqiy normalar moddiy huquq normalariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi [2]. Biroq bu protsessual huquq normalari ikkinchi darajali ekanligini anglatmaydi. Aksincha, protsessual huquq - moddiy huquq normalarini amalga oshirish tartibini belgilab, jamiyatda huquq tushunchasi mazmun-mohiyatini yoritib berishga xizmat qiladi. Protsessual huquq normalari huquqiy jarayonlarni tartibga solish mexanizmlari, adolatni ta'minlash mezonlari, huquqni himoya qilish usullaridan foydalanish va sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarini qamrab olib, shaxsning sud orqali himoya huquqini

ta’minlaydi. Protsessual huquq normalariga rioya etilmasligi himoya huquqining buzilishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, protsessual huquq normalarining davlat va jamiyatdagi ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini anglash mumkin.

Mamlakatimizdagi qonun ijodkorligi borasidagi faoliyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, protsessual qonunchilik normalarining o‘zgaruvchanligini, xususan sudlarda ish yuritishga oid tartib-taomillarning tez-tez transformatsiyaga uchrab ketayotganligini kuzatish mumkin. Xususan ma’muriy sudlarning tashkil etilganidan keyin so‘nggi ikki-uch yilda dastavval, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarning ushbu sudga taalluqligi belgilandi, keyinchalik jinoyat ishlari sudloviga o‘tkazildi, ma’muriy sudlarda ish yuritishda sudning faol ishtiroki tamoyili joriy etildi, yarashuv institutlaridan biri kelishuv bitimi to‘g‘risidagi yangi bob bilan to‘ldirildi, Fuqarolik protsessual kodeksida soddalashtirilgan tartibda ish yuritish tartibi, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish xususiyatlari o‘z ifodasini topdi, iqtisodiy sudlarda ishlarni ko‘rishda prokurorning vakolatlarini ta’minlashga qaratilgan bir qator normalar kiritildi, fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sudga taalluqlikka oid normalar ko‘lami va qo‘llanilishi kengaytirildi, sud qarorlarining qonuniyligi va asosliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan barcha sudlarda sud hujjatlarini qayta ko‘rishning yangi tartibi joriy etildi. Albatta, bu kabi shiddatli o‘zgaruvchanlikning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Salbiy jihatlarni oldini olish maqsadida har bir normani qabul qilishda ilg‘or xorijiy davlatlar qonunchiligi va qonunni qo‘llash amaliyoti tajribasi o‘rganilishi, nazariy va doktrinal yondashuvlar hamda ila ilmiy asoslangan xulosalar inobatga olinishi lozim. Zero, keng qamrovli tadqiqotlar, tizimli tahlil va puxta o‘ylangan xulosalar asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari pirovardda barqaror (“umri uzoq”), davlat va jamiyat uchun manfaatli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 33-sonli qarori (matnda Qaror deb yuritiladi) protsessual qonunchilikni, xususan ma’muriy sud ishlarini yuritishga oid qonunchilik normalarini yangi bosqichini belgilab beruvchi muhim kontseptual xarakterdagi hujjat bo‘ldi. Mazkur hujjat bilan ma’muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi, ma’muriy sudlar faoliyatiga ilg‘or xorijiy tajribada o‘zini oqlagan institut va tartiblarni keng qo‘llash orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ushbu sudlarning rolini oshirish borasida qisqa muddatli va uzoq muddatli tadbirlar belgilandi, ma’muriy sudlarda ish yuritishni

yanada takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Qarorda nazarda tutilgan asosiy yo‘nalishlarning ayrimlariga alohida to‘xtalib, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tishni lozim deb hisoblaymiz.

Ma’muriy sud ishlarini yuritishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda taraflar teng huquqli subyekt hisoblanmaydi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks (matnda MSIYuTK/Kodeks deb yuritiladi)ning 35-moddasiga ko‘ra, fuqarolar va yuridik shaxslarning ma’muriy protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati (ma’muriy protsessual huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi. Ya’ni protsessual qonunchilikda jismoniy va yuridik shaxslarga ma’muriy organlar bilan nizolashishda teng huquqlar kafolatlangan. Jumladan, Kodeks 60-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilib, sud arizachining iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rishi shartligi, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldirishi, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishishi uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerakligi belgilandi. Qonunchilikka mazmur mazmundagi normaning kiritilishidan maqsad ma’muriy ishlarni ko‘rish jarayonida tarafarga ma’muriy protsessual huquq layoqatida tenglikni ta’minlash bo‘lib, yurisprudensiyada professional faoliyat ishtirokchisi sifatida arizachi manfaatida advokatning ishtiroki, bir tarafdan arizachining protsessual normalarning barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda huquqlarini amalga oshirishiga xizmat qilsa, ikkinchi tarafdan qonuniy va asoslantirilgan sud hujjatini qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Kodeksga bundan bir yildan oldin kiritilgan mazkur mazmundagi o‘zgarish va qo‘shimchalar obyektiv-subyektiv sabablarga ko‘ra kutilgan natija bermayapti. Aniqroq, ma’muriy sudlarda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishi ommalashmagan. Fikrimizcha, ushbu normani harakatga keltirish uchun uni amalga oshirish mexanizmlarini yanada aniqlashtirish va kengaytirish, masalan davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash to‘g‘risidagi sudning taklifi rasmiylashtirilishi tartibi, arizachining yuridik yordamdan voz kechishi to‘g‘risidagi xohish iroda yozma ravishda ifodalanishi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida aks ettirilishi, Kodeksga yuqori instantsiya sudlarida ish qayta ko‘rilganda advokatning ishtiroki shartligiga oid normalarning kiritilishi lozim. Masalan, Armaniston protsessual qonunchiligida ham kassatsiya shikoyati faqat advokatlar orqali berilishi mumkinligi belgilab

qo‘yilgan [3]. Bu kabi me’yorlarni protsessual qonunchilikka kiritilishi, shubhasiz, ma’muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishdan farqli ravishda ma’muriy sudlarda ish yuritishda sudning faol ishtiroki tushunchasi mavjud. Sudning faol ishtiroki milliy qonunchiligimizda (MSIYuTKda) alohida tamoyil sifatida kiritilgan bo‘lsa, bir qator davlatlar ma’muriy sud ishlarini yuritish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlarida muayyan tamoyillarda u yoki bu shaklda o‘z ifodasini topgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksida taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi tamoyilida [4], Qirg‘iziston Respublikasining Ma’muriy-protsessual kodeksida obYektiv tekshirish tamoyilida [5], Armaniston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksida haqiqiy holatni aniqlash tamoyilida o‘z aksini topgan.

Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sudning faolligi sud ishlarini yuritishning bir qator tamoyillarini, jumladan barchaning qonun va sud oldida tengligi, ishning haqiqiy holatini aniqlanishi, sud muhokamasining qonuniyligini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Mazkur tamoyilga asosan sud ma’muriy ishning to‘g‘ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirish maqsadida ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sudga taqdim etilgan dalillar bilan cheklanmasdan, o‘z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha qo‘shimcha dalillarni to‘playdi.

Biroq sudning faol ishtiroki tamoyili faqatgina dalillar bilan cheklanib qolmasdan, ma’muriy sud ishlarini yuritish vazifalarini hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni ham qamrab oladi. Huquqshunos, A.Zavotpaeva va A.Kusainova sudning faol ishtiroki tamoyiliga protsessual yangilik sifatida qarab, ushbu tamoyil sudyalarga da’vogarga qo‘shimcha dalillar to‘plashda yordam berish imkoniyatini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ushbu tamoyilga asosan sudyaga qonuniy asoslar bo‘yicha dastlabki fikr bildirish, talabning oqibatlarini tushuntirish, iboralarni shakllantirish va da’volarni o‘zgartirilishiga ko‘maklashish huquqi berilishiga e’tibor qaratadi. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sudyalarga taqdim etilgan imkoniyatlar boshqa turdagi ishlarni ko‘rish qoidalarida mavjud emasligini e’tirof etadi [6].

Nizolashilayotgan ma’muriy organning qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi arizada asos sifatida havola qilingan qonunlarni va boshqa qonunchilik hujjatlarini qo‘llamasdan, ish bo‘yicha tegishli qonunchilik hujjatlarini qo‘llash masalasini hal qilish, nizoning asl mohiyatidan kelib chiqqan holda sudning faol ishtiroki tamoyili asosida talabga aniqlik kiritish choralarini ko‘rib, arizani mazmunan hal etish choralarini ko‘rish shular jumlasidandir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ayrim soha mutasaddilari arizachining

talabiga aniqlik kiritilishi sudyaning aralashuvi bilan amalga oshirilgan taqdirda, xalqaro huquq normalarida e’tirof etilgan sudyaning xolisligi tamoyilini shubha ostiga qo‘yishi mumkin. Nazariymizda, MSYuItKdagı sudning faol ishtiroki to‘g‘risidagi moddada ushbu tamoyilning amal qilish chegarasi aniq belgilab berilmaganligi tortishuvlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, Qozog‘iston Respublikasining Ma’muriy protsessual kodeksining 16-moddasida sudya ma’muriy ishning faktik va (yoki) huquqiy jihatlariga taalluqli qonuniy asoslar bo‘yicha dastlabki huquqiy fikrini bildirishga haqli ekanligi belgilangan [7]. Armaniston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 5-moddasiga ko‘ra, sud da’vo arizasidagi rasmiy xatolarni ko‘rsatadi, noaniq da’volarni aniqlashtiradi, noto‘g‘ri da’volarni taalluqli da’volar bilan almashtiradi, asosiy da’volar bilan hosilaviy da’volarni farqlashni, yetarli bo‘lmagan faktik ma’lumotlarni to‘ldirishni taklif qiladi, shuningdek ishning haqiqiy holatlarini aniqlash va baholash uchun barcha zarur dalillarni taqdim etishni talab qiladi [8]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlarda yerga oid nizolarni ko‘rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 13-bandida nizoning asl mohiyatidan kelib chiqqan holda ma’muriy sudlar sudning faol ishtiroki tamoyili asosida talabga aniqlik kiritish choralarini ko‘rib, arizani mazmunan ko‘rishlari lozimligi qayd etilgan bo‘lsa-da, milliy qonunchiligimizda arizadagi talablarga aniqlik kiritish borasida sudning faolligi haqida so‘z yuritilmagan.

Statistik hisobotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2024 yilda ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib hal etilgan 15,000 tadan ortiq ishlarning, 714 tasi bo‘yicha ish ma’muriy sudga, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga yoki iqtisodiy sudga taalluqli emasligi asosi bo‘yicha ish yuritish tugatilgan [9]. Masalan, “OMAD-GO‘SHT-BARAKA” MChJning javobgarlar Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasining 19.11.2021 yildagi “Kameral soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar materiallarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi 20/1-139326-sonli qarorini va ushbu qarorni kuchida qoldirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 15.03.2022 yildagi 21-248-sonli qarorini qonunga xilof deb topib, bekor qilish to‘g‘risidagi ishi bo‘yicha arizadagi talab sudga taalluqli emasligi sababli ish yuritish tugatilgan. Sud hujjatiga “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 59-moddasiga ko‘ra ma’muriy hujjat manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma’muriy shikoyatiga ko‘ra ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organ, yuqori turuvchi ma’muriy organ tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkinligi, ma’muriy sudlarga esa MSIYuTKning 185-moddasiga asosan ma’muriy organning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining qarorlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab taalluqli ekanligi asos sifatida

ko‘rsatilgan.

Yana bir misol, K.Yusupovaning Qibray tuman hokimining 2020 yil 14 dekabrdagi 1668-sonli qarorini qisman haqiqiy emas deb topish (birinchi talab) va Qibray tuman xalq ta’limi bo‘limi qoshidagi Vasiyilik va xomiylik organining 2020 yil 18 maydagi 03-1/126-sonli chiqish xati bilan davlat notarial bo‘limiga va Qibray tuman Yer tuzish ko‘chmas mulk kadastrlari xizmati bo‘limi boshlig‘iga yozma murojaati hamda Majburiy ijro byurosi Qibray tuman davlat ijrochisi N.Gafurovaning 2021 yil 29 noyabrdagi ko‘chmas mulkka nisbatan Qibray tuman hokimi qarorining 3-bandiga asosan qo‘yilgan taqiqni olib tashlash (ikkinchi talab) to‘g‘risidagi arizasidagi taqiqni olib tashlash to‘g‘risidagi talab sudga taalluqli emasligi to‘g‘risidagi asos bilan ish yuritish tugatilgan [10].

Fikrimizcha, bunday hollarda ma’muriy sudlar sudning faol ishtiroki tamoyili asosida talabga aniqlik kiritish choralarini ko‘rishlari lozim. Chunki, ma’muriy sudda sudning asosiy maqsadi ishning obYektiv haqiqiy holatlarini o‘rganish (ex officio) va ishtirokchilarga huquqlarini himoya qilishga ko‘maklashish hisoblanadi. Tortishuv tamoyili ma’muriy sud ishlarini yuritishda buzilgan huquqlarni to‘la-to‘kis himoya qilish imkoniyatini ta’minlamaydi. Xususan, bir tarafda keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan “qudratli ma’muriy organ” bilan ikkinchi tarafda o‘z huquqlarini yaxshi bilmaydigan fuqaro o‘rtasidagi nizolarda bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Huquqshunos, T.Yablochkovga ko‘ra, sudga haqiqiy holatlarni aniqlashga qaratilgan faol ishtiroki ta’minlanmas ekan, odatda haq taraf emas, sud ishlarini yuritishdan xabardor taraf ishni yutib ketishi, yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmagan taraf o‘z talablarini noto‘g‘ri qo‘yib, uni yetarli dalillar bilan asoslab berolmasdan, eng to‘g‘ri ishni ham yutqazib qo‘yadi [11].

Masalan, birinchi ish bo‘yicha sud tomonidan arizachiga ma’muriy organning qarorini bekor qilish “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 59-moddasiga asosan yuqori turuvchi organga taalluqli ekanligi, sud ma’muriy organning qarorini haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi talabni ko‘rishga vakolatli ekanligi tushuntirilishi lozim. Ikkinchi ish bo‘yicha, sud tomonidan fuqaroning mulkiga taqiq davlat ijrochisinin qaroriga asosan qo‘yilganligi bois, mulkka qo‘yilgan taqiq uni qo‘yishga asos bo‘lgan davlat ijrochisinin qarorini sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi oqibatida olib tashlanishi mumkinligi borasidagi fikrini bildirishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Ma’muriy ishlarni ko‘rishda birinchi instantsiya sudi tomonidan protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 26-moddasida ham sudlar aholining huquqiy ongini oshirish maqsadida, sud hujjati e’lon qilingandan keyin uning mazmunini va sud hujjati qabul qilinishi sabab bo‘lgan asoslarni tushuntirib berishlari lozimligi to‘g‘risida tushuntirish berilgan. Bunday hollarda amalda sud hujjatlari qabul qilingandan keyin arizachi xatosini tushunib, takroran to‘g‘irlangan talab bilan

sudga murojaat qilmoqda. Bu holat esa, arizachilarning vaqtini sarflanishiga, sudma sud yurib ovora bo‘lishiga hamda sudda ham ish hajmining ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Bayon etilganlardan kelib chiqib, MSIYuTKning 11-moddasini sudya ma’muriy ishning faktik va (yoki) huquqiy jihatlariga taalluqli qonuniy asoslar bo‘yicha dastlabki huquqiy fikrini bildirish, noaniq da’volarni aniqlashtirish, noto‘g‘ri da’volarni taalluqli da’volar bilan almashtirishni, asosiy da’volar bilan hosilaviy da’volarni farqlashni taklif qilish borasidagi harakatlarini belgilovchi yoxud sud fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish maqsadida oldindan huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali talablarini shakllantirishda va ularni o‘zgartirishda tarafarga huquqiy ko‘maklashishi to‘g‘risidagi normalar bilan to‘ldirilishi lozim.

Protsessual qonunchiligimizda mazkur mazmundagi normaning kiritilishi sud amaliyotini unifikatsiya qilinishiga, ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida sudlar fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga, oqibatda ma’muriy sudlarning rolini kuchaytirish orqali aholining sud tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi. Zero, A.Koblikov ta’kidlaganidek, adolat davlat faoliyatining bosh mezoni. Odil sudlov huquq va manfaatlariga dahldor bo‘lgan fuqarolarga ham qonuniy ham ma’naviy tamoyillar asosida adolatni ta’minlashi shart [12].

Huquqiy jamiyatda nizoni hal etishning muqobil mexanizmlari yaratilishi jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklashga erishishning samarali vositasi sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yagona tizimini yaratishni taqozo qiladi. Chunki, davlat organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlaridan foydalangan holda kengaytirishning bir qator ijobiy jihatlari bor. Jumladan, nizo bevosita so‘haga aloqador mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Qoida tariqasida nizolarni muqobil usulda hal etish masalalari davlat organi huzurida yoki nodavlat tashkilotlar huzurida komissiya, kengash, guruhlar (va hokazo ... matnda komissiya deb yuritiladi) shaklida tashkil etilib, bir necha so‘ha mutaxassislarini qamrab oladi va unda qarorlar kollegiallik asosida qabul qilinadi. Bu o‘z navbatida, nizoning tub mohiyatini anglash, uni atroflicha o‘rganish, vujudga kelish sabablarini o‘rganish va bartaraf etish, shuningdek, kelgusida oldini olish yo‘llarini tezlik bilan hal etish imkoniyatini yaratadi. Qarorlarning kollegiallikda shaffof qabul qilinishi, bir tizimda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vertikal korruptsiyaning oldini olishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, dunyoning barcha mamlakatlarida odil sudlovga erishish borasidagi islohotlarning asosiy indikatorlaridan biri sifatida

qaraladigan sudlarda ish yuklamasini kamayishiga xizmat qiladi. Bordi-yu, nizo hal etilmasdan sudga o‘tkazilgan taqdirda ham sudda dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash jarayonlari tezlashadi, qonuniy va asoslantirilgan sud hujjatini qabul qilinishi zamin yaratadi. Chunki, sudya tomonidan ishni ko‘rish jarayonida ma’muriy huquqiy munosabatda vujudga kelgan nizo bo‘yicha so‘haga oid boshqa mutaxassislarning ham qarorlari bo‘ladi. Nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlari qonunchilik hujjatlari bilan to‘liq tartibga solinmaganligi ayrim hollarda sudlar tomonidan ham turli xil qarorlarini qabul qilishga sabab bo‘lmoqda. Masalan, arizachi N.Baxadirovning javobgar Davlat kadastrlar palatasi Toshkent viloyat boshqarmasi (Oqqo‘rg‘on tuman filiali) mansabdor shaxslarning turar-joyni S.Masaydovaga kadastr hujjatlari asosida shakllantirib berishdagi xatti-harakatlarini g‘ayriqonuniy deb topib, 2014 yil 3 iyulda 11:07:01:01:01:0597-raqam bilan tayyorlab berilgan texnik inventar hujjatni (kadastr hujjatlarini) haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha arizachi Davlat kadastrlar palatasi Toshkent viloyat boshqarmasiga murojaat qilmaganganligi, arizachining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilmaganligi, ya’ni ommaviy huquqiy munosabat kelib chiqmaganligi sababli ish yuritish tugatilgan [13]. Qonunchilikda ish yuritishni tugatish asoslari qat’iy belgilanganligidan va uni kengaytirilgan tarzda talqin etilishiga yo‘l qo‘yilmasligidan kelib chiqib, fikrimizcha mazkur holat ish yuritishni tugatish uchun asos bo‘lib hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko‘ra har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Ayrim soha mutaxassislari nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilab, unga rioya qilingandan keyingina sudga murojaat qilish mumkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid ekanligini ta’kidlashadi. Biroq mazkur fikrga qo‘shilmagan holda muayyan toifadagi nizolarni sudga chiqargunga qadar muayyan bosqichlarni belgilanishi shart va zarur deb hisoblaymiz. Xorijiy davlatlar qonunchiligi o‘rganib chiqilganda, nizolarni suddan tashqari hal etish, sudgacha hal etish mexanizmlariga katta e’tibor qaratilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ko‘pgina davlatlarda ma’muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish uchun maxsus komissiya (tuzilma, organ) tashkil etilgan bo‘lib, har qanday shaxs o‘zining buzilgan huquqlarini himoya qilish maqsadida ushbu tuzilmaga murojaat qilishi mumkin. Nizoli holatni xolisona va samarali ko‘rib chiqilishini ta’minlash maqsadida Yevropa davlatlarida ushbu organ qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organining ta’siridan xoli holda shakllantirilgan bo‘lsa, Rossiya Federatsiyasida bunday komissiyalar qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organi

huzurida tashkil etilgan. Aksariyat davlatlarda ushbu organlar fuqarolarning murojaatlarini tekinga ko‘rib chiqadi. Ayrim davlatlar, jumladan Polsha va Shri-Lankada komissiyada murojaatni ko‘rib chiqish uchun muayyan to‘lov mavjud bo‘lib, ariza qanoatlantirilganda oldindan amalga oshirilgan to‘lov fuqaroga qaytariladi. Buyuk Britaniyada ma’muriy nizolarni hal etish uchun ixtisoslashgan tribunal tashkil etilgan. Fransiya va Daniyada bunday komissiyalar odatda davlat organlaridan mustaqil ravishda tashkil etilgan [14]. Ixtisoslashgan ombudsmanlar (soliq, moliya, sug‘urta) nafaqat Yevropa balki Osiyoning ko‘plab davlatlarda keng tarqalgan. Masalan, Qozog‘iston Respublikasida huquqlarni himoya qilishning Ombudsman institutida inson huquqlari bo‘yicha, bank ombudsmani, sug‘urta ombudsmani, investitsiya ombudsmani kabi tarmoqqa ixtisoslashgan tizimi mavjud [15].

Milliy qonunchiligimizda ham ma’muriy va boshqa ommaviy munosabatlarda nizolarni muqobil hal etish bo‘yicha huquqiy asoslari shakllantirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bilan Davlat bojxon qo‘mitasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari davlat qo‘mitasi, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda Namangan, Buxoro va Toshkent viloyatlari hokimliklari huzurida Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo‘yicha apellyatsiya kengashlari tashkil etilgan, Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo‘yicha apellyatsiya kengashi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan. Albatta, ma’muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning barhasi bo‘yicha ularning sudgacha hal etilishini majburiy tartibda belgilanishi imkonsiz. Masalan, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha nizoni sudgacha hal qilish mexanizmining joriy etilishiga zarurat bo‘lmaydi. Biroq, fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) huzurida yoxud adliya organlari qoshida ma’muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning (bundan buyon matnda yuridik shaxslar deb yuritiladi) huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash yuzasidan davlat idoralaridan alohida komissiyalar tashkil etilishi, ushbu komissiyalarga muayyan ma’muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlarni sudgacha hal etish vakolatlari berilishi, ushbu komissiyalarning qarorlariga huquqiy jihatdan tavsiyaviy (majburiy xarakterga ega bo‘lmasligi lozim) hujjat sifatida qaralishi lozim. Bunday komissiyalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, nizo sudga borganda sudda ishni ko‘rish jarayonidagi dalillarni yig‘ish, tekshirish va baholash bosqichida qonuniy va asoslantirilgan

sud hujjatlarini qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday nizo bo‘yicha qonuniy va asoslantirilgan sud hujjati qabul qilinishi bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi. Odil sudlovni amalga oshirishda sud muhokamasining oshkora olib borilishi, sudda ish yuritish jarayonida tarafarga tom ma’noda tortishuvchanlik muhitini yaratish, qonun va sud oldida tenglikni ta’minlovchi muhim printsiplarni amalga oshirish uchun bir qator protsessual institutlar mavjud bo‘lib, dastlabki eshituv instituti shular jumlasidandir. Amaldagi protsessual Kodeksda ma’muriy sud ish yurituvida dastlabki eshituv instituti mavjud emas. Huquqshunos olim A.Kerrol dastlabki eshituvning tarixiy rivojlanishini uch asosiy davrga ya’ni qadimgi va o‘rta asrlar davri (inkvizitsiya jarayonlari), yangi davr (huquq islohotlari va yangi qonunlar), zamonaviy davr (mustahkam huquqiy tizimlar va xalqaro standartlar)ga bo‘lib o‘rganadi [16]. Barcha zamonlarda dastlabki eshituvning maqsadida dalillarni yig‘ish, ularni baholash va ishni sud muhokamasiga olib chiqishga tayyorgarlik ko‘rishni o‘z ichiga olgan. Ya’ni dastlabki eshituv instituti tom ma’noda sud majlisi muhokamasiga nizoli ishni barcha qirralarini ochib berish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Huquqshunos olim V.L.Grin protsessual kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishni dastlabki eshituv instituti vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘rsatgan [17].

Ma’muriy sud ish yurituvida ishlarni tez va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlashga hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o‘z huquqlarini himoya qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishga qaratilgan dastlabki eshituv institutini joriy etish bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Fikrimizcha, ma’muriy sud ish yurituvida dastlabki eshituv instituti barcha toifadagi ishlar bo‘yicha emas, balki muayyan toifadagi ishlar uchungina belgilanishi lozim. Shuningdek, dastlabki eshituv har bir holatda sudyaning ixtiyoriga havola qilinishi lozim. Kodeksda muayyan toifadagi ishlar uchun dastlabki eshituvchi imperativ norma sifatida belgilanishi, muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ma’muriy organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida dastlabki eshituv o‘tkazish muhim hisoblanadi. Dastlabki eshituvni o‘tkazish chog‘ida sudya arizachining talablarini va javobgarning e’tirozlarini aniqlashtiradi, arizadagi kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi, talablarni isbotlash uchun arizachiga zarur dalillarni hamda javobgarga fikrni yozma ravishda taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlar beradi, ko‘rilayotgan ishning mazmunan hal etilishi bo‘yicha yakuniy fikr bildirmasdan, arizadagi talablar va ishdagi dalillarga dastlabki huquqiy baho (talablarni aniqlashtirish, ishga dahldor bo‘lmagan taraflarni almashtirish, qo‘shimcha javobgarni jalb qilish va

boshqalar) beradi. Dastlabki eshituvni amalga oshirish uchun muayyan protsessual muddatlarni va uni rasmiylashtirish tartibini ham belgilash lozim. Xususan, dastlabki eshituv bo'yicha majlisning vaqti va joyi to'g'risida taraflar buyurtma xat orqali yoki xabardor qilinganligi fakti qayd etilishini ta'minlaydigan aloqa vositalaridan foydalangan holda xabardor qilinishi, dastlabki eshituv jarayonida sud majlisi bayonnomasi yuritilishi, dastlabki eshituvning muddati bir oydan oshmasligi kabi me'yorlar shular jumlasidandir.

Kontseptsiya I-bo'limining 3-bandida ma'muriy sudlarga jamoaviy arizalar (class action) berish tartibi va asoslarini belgilash nazarda tutilgan. Bu borada xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda ma'muriy sudlarda class action (jamoaviy da'vo) berish imkoniyati har bir davlatning protsessual qonunchiligi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olib kiritilgan. Ayrim yurisdiktsiyalarda ma'muriy nizolar bo'yicha jamoaviy da'volarga ruxsat berilgan, boshqalarida esa bunday tartib mavjud emas. Protsessual qonunchiligimizda ushbu institut mavjud emas. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda jamoaviy da'vo tushunchasining kiritilishining bir qator ijobiy jihatlari mavjud. Xususan, jamoaviy da'volar bir xil huquqbuzilishi holatlariga qarshi jamoaviy kurashish imkonini beradi, sud ishlarini samaraliroq tashkil qilinishiga xizmat qiladi va eng muhimi ma'muriy organlar ustidan nazoratni (ma'muriy yustitsiya) kuchaytirishga xizmat qiladi.

Har bir davlatning qonunchiligida jamoaviy da'voni sud tomonidan qabul qilish uchun muayyan me'yorlar belgilangan. Ushbu me'yorlar shartli ravishda umumlashtirib quyidagicha bo'lib o'rganilishi mumkin:

Numerosity - da'vogarlar guruhining yetarli darajada kattaligi. (Jamoaviy guruhga kiruvchi shaxslar soni shunchalik ko'p bo'lishi kerakki, ularning har biri alohida da'vo qo'zg'atishi qiyin yoki noqulay bo'lishi lozim. Xorijiy davlatlar qonunchiligida jamoaviy da'voga birlashish uchun aniq raqam ko'rsatilmagan, ammo adabiyotlarda umumiy ma'noda 40 nafar yoki undan ortiq shaxslar bo'lsa, bu yetarli deb hisoblanadi.)

Commonality - umumiy huquqiy va faktologik asos. (Guruh a'zolari bir xil huquqiy muammoga duch kelgan bo'lishi kerak. Masalan, muayyan mahsulotni reklamasi orqali shaxslarning aldanishi, ularga zarar yetishi.)

Typicality - da'vogarlarning tipikligi. (Jamoaviy da'voda da'vo arizasi bergan shaxslar guruhning umumiy manfaatlarini ifoda etishi kerak. Ular shaxsiy holatlari bilan butun guruh manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.)

Adequacy of Representation - vakolatli vakillik. (Guruhni ifoda etuvchi asosiy da'vogarlar va ularning vakillari (qoida tariqasida advokatlari) butun guruh manfaatlarini samarali himoya qila olishi kerak.)

Superiority - jamoaviy da'voning shaxsiy da'volardan samaraliroq bo'lishi. (Jamoaviy da'vo alohida-alohida da'volardan ko'ra samaraliroq bo'lishi lozim. Masalan, agar har bir shaxs oladigan

zarar kam bo‘lsa, ammo jami zarar katta bo‘lsa, class action mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.)

Jamoaviy nizolar yo‘l qo‘yilgan protsessual qonunchilik hujjatlarida bir qator umumiy qoidalar mavjud, ular quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

Ma’muriy jamoaviy da’voning predmeti Ma’muriy sudlarda Class Action quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

Bir xil ma’muriy harakat yoki qaror bir guruh shaxslarga ta’sir qilgan bo‘lsa (masalan, noqonuniy soliq sanktsiyalari yoki litsenziya bekor qilinishi).

Davlat organi bir necha fuqarolarning huquqlarini bir xil tarzda buzgan bo‘lsa (masalan, nomunosib ekologik qarorlar, noqonuniy deportatsiya amaliyoti).

Bir guruh shaxslar davlat organidan bir xil majburiyatni bajarishni talab qilayotgan bo‘lsa (masalan, uy-joy dasturidan foydalanish huquqi).

Jamoaviy da’voni qabul qilish uchun sud mezonlari Ma’muriy sudlar jamoaviy da’voni qabul qilishda quyidagi shartlarga amal qiladi:

Guruh yetarli darajada katta bo‘lishi kerak (odatda, 40 yoki undan ortiq fuqarolar).

Da’vo bir xil huquqiy asosga ega bo‘lishi kerak (ya’ni, bir xil ma’muriy qaror yoki harakat barcha guruh a’zolariga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi lozim).

Vakolatli vakillar ishtirok etishi kerak (guruh manfaatlarini ifoda etuvchi shaxslar va tajribali advokatlar).

Jamoaviy da’vo alohida da’volardan samaraliroq bo‘lishi kerak (agar har bir fuqaro alohida shikoyat bersa, bu ma’muriy yukni oshirishi–

Xulosa Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, protsessual qonunchilik normalarini qayta ko‘rib chiqish orqali, korruptsiya va turli suiiste’molchiliklardan xoli bo‘lgan, inson omilini istisno etadigan, ish hajmini yengillashtiradigan va natijasi o‘laroq fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning yanada ta’sirchan mexanizmlarini joriy etadigan normalarni ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishni kengaytirish zarur.

Иқтибослар/Сноски/References

Э. Эгамбердиев ю.ф.д, проф, “Фуқаролик процессуал ҳуқуқи” дарслик, 9-бет. (E. Egamberdiev, Ph.D., professor, "Civil Procedural Law" textbook, page 9.)

З.М.Исломов. Давлат ва ҳуқуқ назарияси.Т.: Адолат, 2007 йил. 668-бет. (Z.M. Islamov. Theory of State and Law. T.: Adolat, 2007. p. 668.)

Завотпаева А.Т., Кусаинова А.К. Административные процедуры и административное судопроизводство в рамках принятого Административного процедурно-процессуального кодекса Республики Казахстан // Вестник Карагандинского университета. Серия Право. -2021. - № 2. - С. 30-37. (Zavotpaeva A.T., Kusainova A.K. Administrativnye procsedury i administrativnoe

sudoproizvodstvo v ramkax prinyatogo Administrativnogo procsedurno-protsessualnogo kodeksa Respubliki Kazakhstan // Vestnik Karagandinsky universiteta. Series Pravo. -2021. – No 30-37.)

борник законодательных актов по административному судопроизводству. 3-е издание. – М.:Инфотропик Медиа, 2018.- С.65-189. (Collection of legislative acts on administrative proceedings. 3rd edition. - M.: Infotropic Media, 2018. - P.65-189.)

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг маъмурий судларнинг иш фаолияти тўғрисидаги статистика маълумотномаси (Statistical reference book of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan on the activities of administrative courts)

Тошкент вилоят маъмурий суди апелляция инстанцияси судининг 5-1101-2409/849-сонли иш бўйича қарори (Decision of the Court of Appeal of the Tashkent Regional Administrative Court in case No. 5-1101-2409/849)

Yablochkov T. M. Uchebnik russkogo grazhdanskogo sudoproizvodstva. YAroslavl', 1910. 326 s. (Yablochkov T. M. Textbook of Russian civil procedure. Yaroslavl, 1910. 326 p.)

Кобликов А.С. Юридическая этика. - М., 2017. - 176 с. (Koblikov A.S. Legal Ethics. - M., 2017. - 176 p.)

Нурафшон туманлараро маъмурий судининг 5-1101-2418/1461-сонли иши (Case No. 5-1101-2418/1461 of Nurafshan Inter-District Administrative Court)

С.И.Помазкова. Досудебное урегулирование споров административного характера в России и за рубежом/ Журнал Экономика. ПРАВО. ОБЩЕСТВО № 4 (12), 2017 (S. I. Pomazkova Pre-trial settlement of administrative disputes in Russia and abroad / Journal Economiks. Law. Society No. 4 (12), 2017)

Carroll, A., Modern Criminal Procedure: Principles and Practices, 2021, p. 203. (Carroll, A., Замонавий жиноий процесс: принциплар ва амалиётлар, 2021, б. 203.)

В.Л. Грин, "Уголовный процесс и предварительное слушание", 2021, стр 178. (V.L. Green, "Criminal Procedure and Preliminary Hearing", 2021, p. 178.)

Йорг Пуделько. Администартивное право Германии. Том 2, Администартивно-процессуальное право. Инфотропик Медиа, 2023. С.28. (Jörg Pudelko. Administrative Law of Germany. Volume 2, Administrative-procedural law. Infotropic Media, 2023. P.28.)